

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSs. 15/31.12.2020.1.09.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**OMAROV MAMANBIY ALLABERGENOVICH**

**YUK TASHISH FAOLIYATINING SAMARADORLIGI VA  
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI  
(“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida)**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlaniye avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)  
po ekonomicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of the  
Doctor of Philosophy (PhD) on economics sciences**

**Omarov Mamanbiy Allabergenovich**

Yuk tashish faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish  
yo'llari ..... 3

**Omarov Mamanbiy Allabergenovich**

Пути повышения эффективности и конкурентоспособности  
деятельности по грузоперевозкам ..... 35

**Omarov Mamanbiy Allabergenovich**

Ways to Improve the Efficiency and Competitiveness of Freight Transport  
Activities ..... 67

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Spisok o'publikovannykh rabot  
List of published works ..... 71

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSs. 15/31.12.2020.1.09.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**OMAROV MAMANBIY ALLABERGENOVICH**

**YUK TASHISH FAOLIYATINING SAMARADORLIGI VA  
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI  
(“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida)**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025 yil**

**Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt367 raqam bilan ro‘yhatga olingan. ro‘yhatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tursunxodjayev Marat Lutfullayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raximov Xasan Shukurjonovich**  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

**Toshkent davlat texnika universiteti**

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.12.2020.1.09.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Adilxo‘jayev ko‘chasi, 1-uy. Tel/faks.: (99871) 293-57-54, e-mail: rector@tstu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Adilxo‘jayev ko‘chasi, 1-uy. Tel/faks.: (99871) 293-57-54)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**O.K. Abduraxmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**M.I. Akbarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, i.f.n., dotsent

**A.A. Gulamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida yuk tashish faoliyati strategik ahamiyat kasb etib, global savdo, sanoat aloqalari va logistika zanjirlarining uzluksiz faoliyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon bankining World Development Indicators hisobotiga ko'ra, 2023 yilda dunyo bo'yicha transport xizmatlari bozori 4,3 trln. AQSH dollariga yetgan bo'lib, har yili 110 milliard tonnadan ziyod yuk va 1 trln.dan ortiq yo'lovchi tashiladi, shuningdek, sohada bevosita band bo'lganlar soni 100 million nafardan oshib ketgan<sup>1</sup>. Mazkur raqamlar yuk tashish faoliyatining jahon miqyosidagi ulkan salohiyati va uning muvaffaqiyatli faoliyati barcha iqtisodiy tizimlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham yuk tashish infratuzilmasini rivojlantirish, uni zamonaviy raqamli yechimlar va innovatsion texnologiyalar asosida qayta tashkil etish, transport-logistika xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, yuk tashish faoliyatida hali ham tashkiliy-marketing mexanizmlarining yetarli darajada samarali faoliyat yuritmasligi, logistika zanjirlarining yetarli darajada integratsiyalashmagani, hamda xalqaro transport koridorlariga to'liq chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi sohadagi raqobatbardoshlikni pasaytiruvchi omillar sirasiga kiradi.

Shu nuqtai nazardan yuk tashish faoliyati samaradorligini oshirish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Mavzuning tadqiq etilishi orqali transport-logistika xizmatlari bozoridagi mavjud muammolarni aniqlash, zamonaviy yechimlarni qo'llash va sohaning raqobat ustunliklarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Yurtimizda transport va logistika sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, ushbu tarmoqni modernizatsiya qilish va infratuzilmasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da transport xizmatlari bozorini rivojlantirish, temir yo'l tarmoqlarini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish, avtomobil yo'llari infratuzilmasini tubdan yangilash, hamda tashqi savdoda "yashil koridorlar"ni kengaytirish orqali tranzit yuk hajmini 15 million tonnagacha oshirish kabi vazifalar belgilangan<sup>2</sup>. Ushbu islohotlarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, temir yo'l transportining raqobatbardoshligini kuchaytirish va uning iqtisodiy qaytarimini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» hamda 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647-son «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2017 yil 2 dekabrda PQ-3422-son «2018-2022 yillarda transport

<sup>1</sup> World Bank: World Development Indicators, <http://data.worldbank.org/indicator>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, shuningdek mazkur yo‘nalishdagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tarmoq iqtisodiyoti va menejmenti samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha ilmiy maktabi vakillari hisoblangan R.Akoff, F.Teylor, M.Meskon, P.Druker, A.Fayol va L.Bertalanfi kabi yetuk olimlarning ilmiy ishlarida batafsil yoritilgan<sup>3</sup>. Transport infratuzilmasini rivojlantirish masalalari chet ellik olimlardan: R.Ballou, P.Stevart, K.Sterligov, N.Pletneva, T.Sыvkunova, A.Kearney, T.Goldsbu va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan<sup>4</sup>.

MDH olimlaridan ushbu sohada I.Belov, G.Bubnova, G.Vovk, V.Galaburda, O.Yefimova, A.Zaysev, A.Kaplan, R.Kojevnikov, V.Kozыrev, V.Kolesnikov, B.Lapidus, L.Levitskaya, B.Lyovin, B.Anikin, E.Gagarskiy, V.Gerami, V.Дыbskaya, A.Kirillova, A.Kolik, P.Kurenkov, E.Mamayev, L.Mirotin, V.Morgunov, D.Novikov, V.Sergeyev va L.Fyodorovlar tomonidan mintaqa transport va logistika kompleksining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari chuqur o‘rganilgan va izohlangan<sup>5</sup>.

O‘zbekiston olimlaridan G.Samatov, M.Ikramov, K.Uldjaboyev, Ya.Qorriyeva, A.Shermuxamedov, K.Ziyadullayev, M.Irisbekova, A.Zohidov, A.Gulamov, V.Yarashova va J. Fayzullayev<sup>6</sup>lar mamlakat transport tizimini samarali rivojlantirishga

<sup>3</sup> Akoff R. Planirovaniye budushogo korporatsiy. – M.: Progress, 1985. – 328 s.; Teylor F. Printsipy nauchnogo menedjmenta. SSHA. 1911. – 77 s.; Meskon M. i dr. Osnovy menedjmenta. Perevod s angl. M.: Delo, 2007; Fayol A. Obshcheye i promyshlennoye upravleniye. – M.: Bukinisticheskoye izd, 1992. – 112 s.; Bertalanfi L. Obshchaya teoriya sistem – obzor problem i rezultatov // Sistemnyye issledovaniya: Yejagodnik. – M.: Nauka, 1969. – 30-54 s.

<sup>4</sup> Christopher, M. Logistics and Supply Chain Management: Creating Value-Adding Networks / Martin Christopher. – London: Prentice Hall. – 2016. – 305 p.; Steward, P. Adaptive supply chain management / P. Steward, B. Sokolov. – Springer, 2015. – 265 pp.; Sterligov K. Mexanizm upravleniya riskami v logistike: avtoref. ... d-ra ekon. nauk.; Pletneva N.G. Teoriya i metodologiya upravleniya logisticheskimi sistemami v usloviyax neopredelennosti: dis. ... d-ra ekon. nauk.; Sыvkunova T.N. Protsess planirovaniya logisticheskoy strategii / T.N. Sыvkunova // Sotsiologiya upravleniya i organizatsii: sovremennyye podkhody: sb.nauch.tr. Saratov: Izd-vo SGTU, 2012. S.29-30.; Kearney M.N. Logistika v sisteme organizatsii predprinimatelskoy deyatelnosti kommercheskix struktur : avtoref. dis. ...d-ra ekon. nauk / M.N. Kearney. SPb., 2011. 31 s.

<sup>5</sup> Belov, I. V. Matematicheskiye metody v planirovanii na jeleznodorojnom transporte: uchebnik dlya vuzov j.-d. transp. I. V. Belov, A. B. Kaplan. – 2-e izd., pererab, i dop. – M.: Transport, 1972. – 248 s: a-il.; Bubnova, G. V. Logisticheskoye vzaimodeystviye kompaniy-operatorov pri organizatsii vagonopotoxov po ekonomicheskim kriteriyam. G. V. Bubnova, A. A. Yerofeyev, P. G. Korenev // Ekonomika jeleznyx dorog. – 2012. – № 10. – S. 85.; Vovk, A. A. Razvitiye sistemy pokazateley ispolzovaniya podvijnogo sostava.; A. A. Vovk, V. B. Litovchenko // Ekonomika jeleznyx dorog. – 2014. – № 2. – S. 76-79; Galaburda, V. G. Yedinaya transportnaya sistema: Ucheb. dlya vuzov / V. G. Galaburda, V. A. Persianov, A. A. Timoshin [i dr.] ; pod red. V. G. Galaburdy. – 2-e izd. s izmen.i dopoln. – M.: Transport, 2001. – 303 s.; Yefimova, O. V. Ekonomicheskiye kriterii upravleniya vagonnym parkom / O. V. Yefimova, Ye. B. Baboshin, B. V. Igolnikov // Ekonomika jeleznyx dorog. – 2012. –№ 5. – S. 46.:

<sup>6</sup> Samatov G‘.A. va boshqalar. Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchliligi. – T.: ToshDAU nashr tahririyati bo‘limi, 2003. – 82 b; Ikramov M.A. Razvitiye avtomobilnyx perevozok po Velikomu shelkovomu puti // Ekonomicheskoye vozrojdeniye Rossii, №4, 2010. –S. 28-36; Uldjaboyev K.U. Ekonomicheskaya reforma na jeleznodorojnom transporta - Toshkent, «Mexnat», 1999g.; Qorriyeva Ya.K. O‘zbekistonning jahon bozoriga chiqishi uchun xalqaro yo‘laklardan samarali foydalanishning logistik transport muammolari. Iqt. fan. dok. ... dis. avtoref., Toshkent 2004; Shermuxamedov A.T. Velikiy shelkovyy put i transportnyye perevozki. FRG. - Berlin: Izd. LAP, 2012. -

muhim ahamiyat qaratganlar. Shuningdek, transport kommunikatsiyalari muammolarini siyosiy fanlar kesimida tadqiq etgan tadqiqotchilar qatoriga J.Artikov, I.Qodirov, R.Sarbayev va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan<sup>7</sup>.

Bugungi kunda yuk tashish faoliyatining samaradorligini oshirish va uning raqobatbardosh rivojlanish modelini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq mavjud ilmiy izlanishlarda logistika zanjiri, transport infratuzilmasi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, hamda bozor kon'yunkturasining ta'sirini to'liq qamrab olgan holda yuk tashish tizimining kompleks tahlili va samarali boshqaruv modellari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, sohada raqobatbardoshlikni ta'minlovchi omillar, xizmat sifati, xarajatlarni optimallashtirish, va innovatsion yondashuvlarning ta'sirini aks ettiruvchi nazariy va uslubiy yechimlar hanuzgacha to'liq ilmiy asosda tizimlashtirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** yuk tashish faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

transport turlari bo'yicha yuk tashish faolyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

temir yo'l transporti raqobatbardoshlik darajasini baholashning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

temir yo'l hamda avtomobil transportlarida yuk tashish faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligining hozirgi holati tahlilini amalga oshirish;

temir yo'l transporti tizimining raqobatbardoshlik darajasini baholash uslubini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

3PL va 4PL logistika provayderlarini rivojlantirish orqali transport raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

temir yo'l transporti tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

temir yo'l transporti faoliyatining faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini modellashtirish.

---

90 c.; Shermuxamedov A.T. Velikiy shyelkovy put i sovremennye avtomagistrali. // Ekonomika i statistika. №6, 2005; Ziyadullayev K.Sh. Integratsiya transportnykh kommunikatsiy Respubliki Uzbekistan v mejdunarodnuyu transportno-kommunikatsionnuyu sistemu // Sovremennye metody organizatsii biznesa i marketinga: Mejevuzovskiy sbornik. –SPb.: SZTU, 2005. –S. 101-106.; Irisbekova M.N. Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2017; Zohidov A.A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018. Gulamov A.A. Temir yo'l kompaniyasining asosiy kapitalini iqtisodiy jihatdan baholash metodologiyasini takomillashtirish («O'zbekiston temir yo'llari» AJ misolida); Yarashova V.K. O'zbekiston transport tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlari. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2022; Fayzullayev J.S. Temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2022.

<sup>7</sup> Artiqov J.Yu. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va transkommunikatsiya muammolari. Siyosiy fan.nom. ... dis. avtoref. -Toshkent, 2005; Kodirov I. O'zbekiston Respublikasi transport diplomatiyasi: muammolar va ularning yechimlari. Siyosiy fan.nom. ... dis. avtoref. Toshkent, 2005; Sarbayev R.M. Razvitiye transportnykh kommunikatsiy Sentralnoy Azii kak vajnyy faktor regionalnoy bezopasnosti.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida yuk tashish faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, funksional va tarkibiy baholash, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, dinamik va statik, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli, ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

temir yo'l transporti tizimining iqtisodiy rivojlanishini va uning istiqbolli imkoniyatlarini aniqlash maqsadida raqobatbardoshlik darajasini "potensial" (0,51-0,55), "rentabelli" (0,55-0,65), "raqobatbardosh" (0,66-0,75), "investitsion" (0,76-0,9) va "innovatsion" (0,91-1,0) shkalalar asosida baholash tizimi taklif etildi;

4PL logistika provayderi modeli ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi xomashyo yetkazib beruvchilar, qayta ishlash korxonalari, transport logistika tizimlari, iste'molchilarni o'zaro uzviy bog'liq holda barcha tashish jarayonlarini "bir darcha" tamoyili asosida birlashtirish taklifi asoslangan;

temir yo'l transporti tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi xalqaro transport koridorlariga integratsiyalangan "Temir yo'ldan-markazga" logistika provayderi hamda bozor sharoitiga moslashuvchi "Tarif" modelini kiritish orqali takomillashtirilgan;

temir yo'l transportining iqtisodiy faoliyatini baholash va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida operatsion tushumlar, investitsiya hajmi, tranzit tashuvlar, asosiy fondlar qiymati va mahalliy yuk tashish hajmlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi ekonometrik model asosida temir yo'l transporti iqtisodiy faoliyatining 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

temir yo'l transportida iqtisodiy faollikni baholash va unda mavjud salohiyatni aniqlash uchun ishlab chiqilgan besh bosqichli reyting shkalasi sohadagi subyektlarning raqobatbardoshlik darajasini tizimli segmentlash va maqsadli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

4PL logistika provayderini rivojlantirish modeli asosida logistika zanjirida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni "bir darcha" tamoyili asosida muvofiqlashtirish mumkin bo'lib, bu yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, transport xarajatlarini kamaytirish va mijozlar qoniqishini oshirishga xizmat qiladi.

temir yo'l transporti tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini "Temir yo'ldan-markazga" logistika konsepsiyasi va "Dinamik tarif" modeli asosida takomillashtirish orqali tarmoqning xalqaro transport koridorlariga integratsiyalashuvi, raqobatbardoshlikning oshishi va tarmoqdagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkoni yaratiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuvlar hamda usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan empirik tadqiqotlarning o'rnatilgan uslubiy asosga egaligi, xulosa va takliflarning transport sohasiga vakolatli idoralar va tashkilotlardan o'tganligi hamda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati integratsiyalashgan transport-logistika tizimini samarali boshqarish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, integratsiyalashgan transport-logistika tizimini samarali boshqarishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati tegishli vazirlik va idoralar tomonidan integratsiyalashgan transport-logistika tizimini samarali boshqarishda, sohadagi muammolarni aniqlash va tarmoq faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishda, mamlakat transport-logistika tizimi istiqbollari belgilashda foydalanish mumkin. Shu bilan birga tadqiqot natijalaridan “Transport logistikasi”, “Transport iqtisodiyoti”, “Temir yo‘l transport korxonalari raqobatbardoshligi” fanlari bo‘yicha keys-stadilar, ma‘ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yuk tashish faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

temir yo‘l transporti tizimining iqtisodiy rivojlanishini baholash va uning istiqbolli imkoniyatlarini aniqlash maqsadida raqobatbardoshlik darajasini “potensial” (0,51-0,55), “rentabelli” (0,55-0,65), “raqobatbardosh” (0,66-0,75), “investitsion” (0,76-0,9) va “innovatsion” (0,91-1,0) shkalalar yuzasidan taklifi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan “Temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2025 yil 8 apreldagi 04/1375-25-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida temir yo‘l transport tizimining rivojlanish jarayonidagi salbiy tendensiyalarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini yaratgan;

4PL logistika provayderi modeli ta‘minot zanjiri ishtirokchilari o‘rtasidagi xomashyo yetkazib beruvchilar, qayta ishlash korxonalari, transport logistika tizimlari, iste‘molchilarni o‘zaro uzviy bog‘liq holda barcha tashish jarayonlarini “bir darcha” tamoyili asosida yuzasidan taklifi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan “Temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2025 yil 8 apreldagi 04/1375-25-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston temir yo‘llari iqtisodiy faoliyatining istiqbolini ta‘minlashda milliy transport-tranzit tizimini samarali rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish darajasini aniqlash imkoni yaratilgan;

temir yo‘l transporti tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmi xalqaro transport koridorlariga integratsiyalangan “Temir yo‘ldan-markazga” logistika konsepsiyasi hamda bozor sharoitiga moslashuvchi “Dinamik tarif” modelini kiritish orqali takomil”Temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi»ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2025 yil 8 apreldagi 04/1375-25-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ta‘minot zanjiriga jalb qilingan barcha logistik kompaniyalar integratsiyasi ta‘minlangan va tizimning iqtisodiy rivojlanish darajasini 20 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

temir yo‘l transportining iqtisodiy faoliyatini baholash va istiqboldagi rivojlanish

tendensiyalarini aniqlash maqsadida operatsion tushumlar, investitsiya hajmi, tranzit tashuvlar, asosiy fondlar qiymati va mahalliy yuk tashish hajmlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi ekonometrik model asosida temir yo'l transporti iqtisodiy faoliyatining 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari yuzasidan taklifi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan "Temir yo'l transporti tizimini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2025 yil 8 apreldagi 04/1375-25-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida joriy qilinishi temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish mexanizmini yaratish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 136 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejalari bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Yuk tashish faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-amaliy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida transport sohasida raqobatbardoshlik va yuk tashish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillari tasnifi, transport turlari o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirishga oid zamonaviy yondashuvlar tadqiq etilgan. Temir yo'l transportining raqobatbardoshlik darajasini baholashning asosiy ko'rsatkichlarining aniqlilik darajasi va asosiy ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan. Temir yo'l transportining raqobatbardoshlik darajasini baholash ko'rsatkichlarining hisob-kitobi taklif etilgan.

Yuk tashish faoliyati iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish sohasi va iste'molchilar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Samaradorlik tushunchasi bu sohada resurslarning to'g'ri taqsimlanishi, xarajatlarni minimal darajada ushlab, shu bilan birga sifatli va tezkor xizmatlarni ko'rsatish kabi maqsadlarga erishishni anglatadi. Yuk tashish samaradorligini oshirish nafaqat qo'shimcha iqtisodiy daromad keltiradi, balki logistika tizimining barqarorligini ta'minlaydi va eksport-import operatsiyalarining qiymatini pasaytirish imkoniyatini beradi.

Transport sohasida raqobatbardoshlikning ushbu omillari tizimli yondashuvni

talab qiladi. Kompaniyalar yuqori sifatli xizmatlarni taklif etish, xarajatlarni optimallashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali bozorda o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin. Infratuzilmani yaxshilash va transport vositalari parklarini modernizatsiya qilish esa umumiy iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Raqobatbardoshlik transport sohasining iqtisodiyotdagi barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir kompaniya o'z xizmatlarini takomillashtirish orqali bozordagi o'rnini mustahkamlashga harakat qiladi. Dissertatsiyada yuk tashish samaradorligi va raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi quyidagi omillar tanlab olindi (1-jadval).

1-jadval

**Yuk tashish samaradorligi va raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar<sup>8</sup>**

<b>№</b>	<b>Omillar</b>	<b>Turlari</b>
1.	Texnologik innovatsiyalar	Intellectual transport tizimlarining joriy etilishi
		Avtomatlashtirilgan yuk tashish platformalari va tizimlar
		GPS va yo'nalishlarni optimallashtirish algoritmlari
		Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida boshqaruv
		Energiya samaradorligini oshirish uchun ilg'or texnologiyalar
2.	Iqtisodiy omillar	Energiya resurslari narxi
		Ishchi kuchi xarajatlari va uning bozordagi dinamikasi
		Talab va taklif muvozanati
		Yuk tashish tariflari va ularning bozor sharoitiga mosligi
		Valyuta kursi va inflyatsiya darajasi
3.	Huquqiy va davlat qo'llab-quvvatlovi	Davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlari
		Litsenziyalash va qonunchilikdagi soddalashtirilgan mexanizmlar
		Milliy transport siyosatining samaradorligi
		Xalqaro transport qoidalari va standartlari
		Davlat-hususiy sheriklik loyihalari
4.	Logistika infratuzilmasi	Zamonaviy terminallar va omborxonalar
		Yo'l tarmoqlarining holati va ularning xalqaro tarmoqlar bilan bog'liqligi
		Logistika markazlarining samaradorligi
		Yuklarni saqlash va qayta ishlash tizimlarining sifatli tashkil etilishi
		Zamonaviy logistika provayderlari (3PL va 4 PL)
5.	Bozor talablari	Iste'molchilarning tezkorlik, xavfsizlik va sifat bo'yicha talablari
		Tovarlarni individual talablarga moslashtirish imkoniyatlari
		Mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va ularga javob berish strategiyalar
6.	Tashkiliy va boshqaruv omillari	Kompyuterlashtirilgan boshqaruv tizimlari
		Ichki logistika jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi
		Korxonalar o'rtasidagi hamkorlik va klasterlashuv
		Hududiy va global transport strategiyalarini ishlab chiqish
7.	Ekologik omillar	Transport vositalarining ekologik talablarga mos kelishi
		Uglerod izini kamaytirishga qaratilgan choralar
		Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish
8.	Raqobat muhiti	Bozordagi asosiy raqobatchilarning holati va strategiyalari
		Bozorga yangi kompaniyalarning kirishi
		Multimodal transport xizmatlari sohasidagi integratsiya
9.		Tashqi savdo yo'nalishlarining ko'payishi

<sup>8</sup> O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

	Tashqi savdo va xalqaro integratsiya	Xalqaro transport koridorlari bilan bog‘liqlik
		Eksport-import operatsiyalarining dinamikasi
10.	Ijtimoiy omillar	Transport sohasidagi kadrlarning malakasi va bilim darajasi
		Mehnat sharoiti va ishchi kuchi yetkazib berish masalalari
		Transport sohasidagi jamiyat ongi va madaniyati

Temir yo‘l transporti tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligi transport-logistika sohasining rivojlanishi, mamlakat iqtisodiy o‘shining ta‘minlanishi hamda xalqaro integratsiya jarayonlaridagi ishtirokini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Temir yo‘l transportining samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish masalasi bugungi kunning eng ustuvor ilmiy va amaliy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqot ishining asosiy gipoteza shundan iboratki, temir yo‘l transportida raqobatbardoshlikni oshirish va samaradorlikni ta‘minlash uchun har tomonlama chuqur tahlil qilingan hamda tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi. Bu yondashuv bir-biri bilan uzviy bog‘liq va o‘zaro ta‘sirga ega bo‘lgan bir necha yo‘nalishlarni qamrab oladi, quyida temir yo‘l transportining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishning nazariy asosi keltirilgan (1-rasm).


Temir yo‘l infratuzilmasi modernizatsiya qilinishi, uning texnik va texnologik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, yangi yo‘nalishlarni ochish hamda qo‘shimcha logistika markazlarini tashkil etish raqobatbardoshlik darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Infratuzilma barqarorligi yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishning kafolatidir. Zamonaviy logistika texnologiyalari va 3PL hamda 4PL provayderlarining imkoniyatlaridan foydalanish temir yo‘l transportining samaradorligini oshirishda muhimdir. Ular orqali yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish, tezkorlik va xarajatlarni qisqartirish imkoniyati yaratiladi.

Temir yo‘l transportidagi tarif siyosatini bozor qonuniyatlari va istiqbolli ehtiyojlarga moslashtirish raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shaffof va adolatli tariflar xizmatlar sifatini yaxshilash hamda iste‘molchilarni jalb qilish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Temir yo‘l transporti rivoji uchun davlat siyosatining maqsadli chora-tadbirlari, shu jumladan, moliyaviy ko‘mak, soliq imtiyozlari va qonunchilik islohotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan infratuzilmani yangilash va logistika tizimlarini qo‘llab-quvvatlash transporti raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda temir yo‘l transportining ekologik afzalliklaridan keng foydalanish hamda innovatsion yechimlarni joriy etish uning xalqaro standartlarga mosligini ta‘minlaydi va kelajakdagi muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Shu tariqa, ushbu yondashuvning barcha yo‘nalishlari o‘zaro uyg‘un ravishda amalga oshirilishi raqobatbardoshlik darajasini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish hamda temir yo‘l transportining xalqaro bozordagi mavqegini mustahkamlash imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy manfaatlarni, balki transport tizimi barqarorligi va ekologik xavfsizligini ham ta‘minlaydi.



**1-rasm. Temir yo'l transportining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishning nazariy asosi<sup>9</sup>**

<sup>9</sup> Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot ishida temir yo‘l transportining raqobatbardoshlik darajasini baholashda keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘rtta yo‘nalishga ajratildi va ularning natijasini aniqlash bo‘yicha matematik formulalar quyida keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

**Temir yo‘l transportining raqobatbardoshlik darajasini baholash  
ko‘rsatkichlarining hisob-kitobi<sup>10</sup>**

№	Ko‘rsatkich nomi	Hisoblash formulasi	Parametrlar
<i>Iqtisodiy ko‘rsatkichlar</i>			
1.	Tarif raqobatbardoshlik indeksi	$TRI = \frac{T_t}{T_{ortacha}} * 100$	$T_t$ – temir yo‘l transportining tariflari; $T_{ortacha}$ – bozordagi raqobatchilarning o‘rtacha tariflari.
2.	Tashish hajmi bo‘yicha o‘rish koeffitsenti	$K_{tashish} = \frac{Q_t - Q_{t-1}}{Q_{t-1}} * 100$	$Q_t$ – joriy yildagi tashish hajmi; $Q_{t-1}$ – o‘tgan yildagi tashish hajmi, tonna.
3.	Samaradorlik indeksi	$SI = \frac{Q}{wL + rK + \dots}$	$Q$ – umumiy tashish hajmi; $wL + rK + \dots$ – tashishni tashkil etishga ketgan xarajatlar.
4.	Talab va taklif muvozanat modeli	$Q_d = Q_s \Rightarrow P^* = \frac{a - b * Q}{c + d * Q}$	$Q_d$ – talab hajmi; $Q_s$ – taklif hajmi, $a, b$ – talab funksiyasi parametrlari; $c, d$ – taklif funksiyasi parametrlari.
<i>Sifat ko‘rsatkichlari</i>			
5.	Yetkazib berish tezkorligi indeksi	$YTI = \frac{M}{V_{yetkazish}}$	$M$ – tashish masofasi (kmda); $V_{yetkazish}$ – o‘rtacha yetkazib berish vaqti (soatda).
6.	Tezkorlikni mijoz talabiga muvofiqlik indeksi	$MTMI = \frac{V_m - V_{haqiqiy}}{V_m}$	$V_m$ – mijoz tomonidan talab qilingan vaqt; $V_{haqiqiy}$ – haqiqiy yetkazib berilgan vaqt.
7.	Mijozning qoniqish indeksi	$MQI = \frac{\sum_{i=1}^n w_i S_i}{\sum_{i=1}^n w_i}$	$S_i$ – mijozning $i$ – xizmat turiga qoniqish darajasi (ballarda); $w_i$ – xizmat turining zaruratligi koeffitsiyenti; $n$ – xizmat turlari soni.
8.	Qoniqish farqi	$QF = \frac{\sum_{i=1}^n  M_i - H_i }{n}$	$M_i$ – mijozning $i$ – xizmat turi bo‘yicha kutilayotgan natija; $H_i$ – haqiqiy ko‘rsatilgan xizmat darajasi.
9.	Xavfsizlik indeksi	$XI = \frac{1}{1 + \frac{N_{ins}}{H_{umum}}}$	$N_{ins}$ – yuzaga kelgan insidentlar soni; $H_{umum}$ – tashish jarayonidagi umumiy harakatlar soni.
10.	Yukni yetkazib berishning mutanosiblik indeksi	$YYBMI = \frac{S_{yetkazilgan}}{S_{umumiy}} * 100$	$S_{yetkazilgan}$ – belgilangan vaqtda yetib borgan yuklar soni; jami yuklar soni.
11.	Yuk sifatini saqlash indeksi	$YSSI = \frac{Y_{umum} - Y_{zar}}{Y_{zar}} * 100$	$Y_{umum}$ – yukning boshlang‘ich yoki umumiy holati; $Y_{zar}$ – zararlangan yoki yo‘qotilgan yuk vazni.

Ushbu ko‘rsatkichlar transport tizimining samaradorligini va xizmatlar sifati darajasini har tomonlama baholash imkonini beradi. Ular orqali korxonalar o‘z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, strategik qarorlar qabul qilishda

<sup>10</sup> O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash mumkin bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish orqali korxonalar o'z resurslaridan yanada samarali foydalanishga va kelgusi rivojlanishni ta'minlashga erishadilar.

Dissertatsiyaning "**Transport turlarida yuk tashish faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligining hozirgi holati tahlili**" deb nomlangan ikkinchi temir yo'l va avtomobil transportlari yuk tashish faoliyatining rivojlanish tendensiyalari tahlili keltirilib, uning rivojlanish ko'rsatkichlari va mummolari tadqiq etilgan. Tarif kelishuviga a'zo temir yo'llarning xalqaro tashuvlarda qo'llaniladigan tarif turlarining qiyosiy tahlili, transport turlari bo'yicha yuk tashish quvvati va tezligi, temir yo'l transportining raqobatbardoshlik darajasining reyting shkalasi taklif etilgan.

Yuk tashish bozorida transport turlarining o'rnini aniqlashda har bir turning iqtisodiy samaradorligi, infratuzilmaviy imkoniyatlari va strategik ahamiyati e'tiborga olinadi. Temir yo'l va avtomobil transportlari bu bozorning ikki asosiy tayanchi bo'lib, har biri muayyan vazifalarni bajarishda o'zining o'ziga xos afzalliklari va cheklovlariga ega. Temir yo'l transporti yuk tashish bozorining tarkibiy qismi sifatida katta hajmli va uzoq masofali tashishlarda alohida ahamiyatga ega. Bu transport turi energiya samaradorligi va ekologik tozaligi bilan ajralib turadi. Yirik korxonalar va sanoat markazlari o'rtasida xomashyo va tayyor mahsulotlarni tashishda temir yo'l quvvati yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Avtomobil transporti esa yuk tashish bozoridagi eng ko'p tarqalgan turlardan biri hisoblanadi. Bu transport turi asosan qisqa va o'rta masofalarda yuk tashish uchun samaralidir. Uning harakatchanligi va elastikligi uni kichik va o'rta biznes uchun eng maqbul variantga aylantiradi.

Temir yo'l va avtomobil transportlarida yuk tashish faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshlik holatini yuk tashish hajmi, tariflar va xarajatlar, quvvatlar va ish samaradorligi, ekologik, xizmat sifati, iqtisodiy hamda xalqaro ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq, quyida 2017-2023 yillarda transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi natijalari keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmi va yuk aylanmasi<sup>11</sup>**

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
1.	<b>Tashilgan yuklar, mln.t</b>	<b>1 319.8</b>	<b>1 366.7</b>	<b>1 420.2</b>	<b>1 420.9</b>	<b>1 455.7</b>
2.	Temir yo'l	70.1	70.6	72.0	73.4	73.7
3.	Avtomobil	1 177.7	1 238.2	1 282.0	1 284.1	1 322.0
4.	Quvur yo'li	72.0	57.9	66.2	63.5	60.0
5.	Havo yo'li, ming	10.4	5.3	9.1	10.2	9.3
6.	<b>Yuk aylanmasi, mlrd.t-km</b>	<b>72.6</b>	<b>66.9</b>	<b>74.8</b>	<b>75.5</b>	<b>77.6</b>
7.	Temir yo'l	23.4	23.6	24.6	25.0	27.1
8.	Avtomobil	15.9	16.2	19.1	20.5	22.3
9.	Quvur yo'li	33.2	26.8	30.8	29.7	28.0
10.	Havo yo'li, mln.t-km	119.0	219.0	303.5	322.8	226.3

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, yuk tashish hajmida umumiy o'sish kuzatilsa-da, o'rtacha yillik o'sish sur'ati qoniqarli emas. 2019-2023 yillar oralig'ida yuk tashish

<sup>11</sup> Transport vazirligi ma'lumotlari.

hajmi 1 319,8 mln. tonnadan 1 455,7 mln. tonnaga o‘sgan bo‘lib, umumiy o‘shish foizi taxminan 10,3%ni tashkil etadi. Bu o‘rtacha yillik 2,6% o‘shish sur‘atini ko‘rsatadi. Avtomobil transporti tashilgan yuk hajmi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. 2023 yilda avtomobil transporti 1 322 mln. tonnani tashishni amalga oshirgan, bu umumiy yuk tashish hajmining asosiy qismini tashkil etadi. Avtomobil transportining hajmi esa 1 177,7 mln. tonnadan 1 322 mln. tonnaga o‘sgan, o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 2,9%ni tashkil etmoqda, bu esa me‘yoriy qiymatdan 40 foizga kamligini ko‘rsatadi.

Tariflar va xarajatlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida, balki xizmat sifati va yuk tashish bozoridagi mijozlar tanloviga ta‘sir qiluvchi omil sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Tariflarning moslashuvchanligi va xarajatlarni optimallashtirish orqali har ikki transport turi ham o‘z afzalliklarini kuchaytirishi va mijozlar uchun yanada jozibador bo‘lishi mumkin. Shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik samaradorlikni oshirish va xalqaro tranzit yuk tashish uchun imtiyozli tariflarni joriy etish muhim hisoblanadi. Quyida tarif kelishuviga a‘zo temir yo‘llarning xalqaro tashuvlarda qo‘llaniladigan tarif turlarining qiyosiy tahlili keltirilgan (4-jadval).

4-jadval

**Tarif kelishuviga a‘zo temir yo‘llarning xalqaro tashuvlarda qo‘llaniladigan tarif turlarining qiyosiy tahlili<sup>12</sup>, 2024 yil**

<b>№</b>	<b>Temir yo‘llar</b>	<b>Xalqaro tashuv turlari</b>	<b>Tarif stavkalari turlari</b>	<b>Turli tariflarning o‘rtacha rentabelligi, %</b>
1.	Rossiya	tranzit	XTT	65
		eksport	10-01	18
		import	10-01	18
2.	Belarus	tranzit	XTT	62
		eksport	10-01	20
		import	10-01	22
3.	Ozarbayjon	tranzit	XTT	70
		eksport	10-01	15
		import	10-01	15
4.	O‘zbekiston	tranzit	XTT va YATT (YETT)	68 va 28
		eksport	10-01	10
		import	XTT	10
5.	Qozog‘iston	tranzit	XTT va YATT (YETT)	70 va 28
		eksport	10-01	15
		import	10-01	15
6.	Turkmaniston	tranzit	XTT va YATT (YETT)	60 va 25
		eksport	10-01	15
		import	XTT	40

*XTT—xalqaro tranzit tarifi; YATT—yagona tranzit tarifi; 10-01—mahalliy tarif.*  
*Xalqaro tranzit tarifi (XTT): Bu tarif ko‘plab mamlakatlarda transport jarayonlarining asosiy qismida qo‘llanilib, yuqori rentabellikni ta‘minlaydi. Yagona tranzit tarifi (YATT yoki YETT): Uzoq masofalarda yuk tashish uchun qulay bo‘lib, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston kabi davlatlarda samarali foydalanilmoqda. 10-01 mahalliy tarif: Eksport va import yuklar uchun qo‘llaniladigan tarif bo‘lib, uning rentabelligi juda past (10-15%).*

<sup>12</sup> Transport vazirligi ma‘lumotlari.

Jadvaldagi ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, XTT tariflari tranzit tashuvlarda eng samarali tarif turi hisoblanib, rentabellik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan davlatlar ushbu yo'nalishda yuqori raqobatbardoshlikka erishgan. Ikkinchidan, YATT tariflari infratuzilmani yaxshilash va transport zanjirlarini moslashuvchan qilish uchun qo'llanilib, pastroq, lekin barqaror rentabellik darajasini ta'minlamoqda. Uchinchidan, eksport va import uchun qo'llaniladigan 10-01 tariflari rentabellik darajasi past bo'lganligi sababli, ularni isloh qilish zarur.

Tariflar siyosatining qayta ko'rib chiqilishi, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xarajatlarni optimallashtirish xalqaro yuk tashuvlardagi raqobatbardoshlikni yanada oshirish imkonini beradi. O'zbekistondagi 68% XTT rentabellik ko'rsatkichi mamlakatning tranzit tashuvlardagi kuchli pozitsiyasini aks ettiradi, biroq eksport va import tariflari bo'yicha 10% ko'rsatkich ushbu yo'nalishlardagi samaradorlikni oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, davlatning transport siyosatida tariflarning moslashuvchanligiga e'tibor qaratish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu choralar temir yo'l tarmog'ining umumiy samaradorligini oshirib, O'zbekistonning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

2018-2023 yillar davomida temir yo'l transportida yuk tashish bilan bog'liq xarajatlarning tarkibi transport tizimining moliyaviy faoliyatidagi asosiy xarajatlarning dinamikasi, ularning o'sish sur'atlari va umumiy xarajatlar tarkibidagi ulushini tahlil qilish imkonini beradi (5-jadval). Bu ma'lumotlar transport tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini baholash uchun muhim hisoblanadi.

5-jadval

**2018-2023 yillar bo'yicha temir yo'l transportida yuklarni tashish xarajatlari tarkibi,<sup>13</sup> mln.so'm.**

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Material	229 769	352 742	604 416	434 356	849 292	853 743
2.	Elektr energiyasi	55 934	78 015	110 525	188 104	230 124	235 462
3.	Yoqilg'i	268 127	277 156	410 508	413 922	422 867	418 150
4.	Amortizasiya	516 094	718 091	1 128 739	1 214 846	1 373 131	1 501 352
5.	Ta'mirlash fondi	80 750	149 651	196 139	260 446	295 069	275 000
6.	Ish haqi fondi	710 505	858 263	1 192 501	1 569 878	1 891 005	2 220 025
7.	Ijtimoiy sug'urta badallari	176 205	211 895	297 040	391 705	226 921	264 345
8.	Boshqa xarajatlar	1 005 540	1 298 219	2 114 563	1 866 021	2 190 619	1 925 457
	<b>Jami</b>	<b>3 042 924</b>	<b>3 944 032</b>	<b>6 054 431</b>	<b>6 339 278</b>	<b>7 479 028</b>	<b>7 693 534</b>

<sup>13</sup> "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ma'lumotlari.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2018 yilda temir yo‘l transportidagi yuk tashish xarajatlarining umumiy miqdori 3 042 924 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda ushbu ko‘rsatkich 7 693 534 mln. so‘mga yetgan. Harajatlar miqdori 2018 yilga nisbatan deyarli ikki barobar oshgan bo‘lib, o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati taxminan 19% ni tashkil etadi. Bu o‘sish birinchi navbatda inflyatsiya, moddiy resurslar narxining oshib borishi, ish haqi fondining ko‘payishi va infratuzilmani modernizatsiya qilish xarajatlari bilan izohlanadi.

Temir yo‘l transportining raqobatbardoshlik darajasini baholashda kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilgan reyting shkalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiyada reyting shkalasi raqobatbardoshlik darajasini 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda baholash taklif etiladi va besh toifaga ajratildi (6-jadval). Juda past daraja – 0,50 dan past bo‘lgan holatda transport tizimi raqobat muhitida sezilarli mavqega ega emas, infratuzilmaning zaifligi va xizmat ko‘rsatish sifatining pastligi bois bozor ulushi cheklangan bo‘ladi. Past daraja – 0,51 dan 0,65 gacha bo‘lgan holatda transport tizimi bozordagi mavqeiga ega bo‘lsa-da, raqobatbardoshlikni ta‘minlash uchun jiddiy o‘zgarishlar talab etiladi. Bu bosqichda xizmat ko‘rsatish tezligi va sifati yetarli emas, bu esa bozor ulushini kengaytirish imkoniyatini cheklaydi.

6-jadval

**Temir yo‘l transportining raqobatbardoshlik darajasining reyting shkalasi<sup>14</sup>**

